



O'zbekistonda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash holati va uni takomillashtirish.

Toshkent amaliy Fanlar universiteti
Pedagogika fakulteti,
Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi
Mirsidiqova Aziza

Muallif: Iminjonova Durdona kamoliddin qizi
Toshkent Amaliy fanlar Universiteti
Pedagogika fakulteti 4-bosqich talabasi
Telefon raqam: +998943100817

Annotatsiya: Hozirgi kunda jamiyatda oilaviy nizolarning soni ortib bormoqda bunga sabablardan biri sifatida yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini yetarli darajada shakllanmaganligi keltirish mumkin. Ushbu maqola talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida bo'lib, ularni holati yetuklik davri (har tomonlama fuqarolik yetukligi, kognitiv) batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oila, yoshlar, nikoh, kognitiv, fuqarolik, yetuklik, kasb-hunar

Состояние подготовки студенческой молодежи к семейной жизни в Узбекистане и ее совершенствование.

*Ташкентский университет прикладных наук
Педагогический факультет,
Старший преподаватель кафедры психологии
Мирсидикова Азиза*

Автор: Иминжонова дердона камолиддиновна
*Ташкентский университет прикладных наук
Студент 2 курса педагогического факультета
Телефон: +998943100817*

Аннотация: В настоящее время в обществе растет число семейных конфликтов в качестве одной из причин этого можно назвать недостаточную сформированность у молодежи представлений о семейной жизни. Данная статья посвящена подготовке учащейся молодежи к семейной жизни, состояние которой в период зрелости (всесторонняя гражданская зрелость, познавательная) подробно анализируется.

Ключевые слова: семья, молодежь, брак, познавательный, гражданский, зрелость, профессия

The state of preparation of student youth for family life in Uzbekistan and its improvement.

*Tashkent University of Applied Sciences Faculty of Pedagogy, Senior Lecturer,
Department of Psychology Mirsidikova Aziza*

Author: Iminjonova Durdona kamoliddin's daughter

*Tashkent University of Applied Sciences
2nd Stage Student of the Faculty of pedagogy*

Phone number: +998943100817

Annotation: currently, the number of family conflicts in society is increasing one of the reasons for this can be cited as insufficient formation of the perception of young people about family life. This article is about preparing student youth for family life and analyzes them in detail during the period of maturity of their state (comprehensive civic maturity, cognitive).

Keywords: Family, Youth, marriage, cognitive, citizenship, maturity, professional

Mamlakatimizda oila masalasiga alohida e'tibor berayotganligi bejiz emas, albatta. Yurtimizning porloq ertasining zamini jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lishi oilada yaratiladi.

Oila shunday muqaddas makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, axloqiy ma'naviy qadriyatlarimiz saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkamlanadi.

Ma'naviy yetuk oila – ma'naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila – tarbiya o'chog'idir. Oila — muqaddas dargoh. Oila qo'rg'onining mustahkam bo'lishi uchun xalqimizga xos sabr-qanoat, o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat singari fazilatlarga amal qilib yashash lozim. Ayniqsa, yoshlarni yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan, o'ziga xos mazmunga ega tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shiddat bilan ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy rivojlanib borayotgan bugungi G'arb davlatlarida oila inqirozi ro'y berayotgan bir pallada mamlakatimiz bu masalaga juda katta ahamiyat berayotganligini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda.

Shu o'rinda yoshlar jamiyatimizning ijtimoiy faol bir bo'lagidir. Ularni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunimizning o'ta dolzarb masalasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham Respublikamiz Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" bo'yicha farmonida ham "Yoshlarga oid davlat siyosati"ni takomillashtirish alohida band sifatida kiritilgan. Unda ta'kidlanishicha, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikirlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasini takomillashtirish zarurdir. "Harakatlar strategiyasining" IV bo'lim 4.5. bandida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish haqida fikr bildirilib, mutasaddi tashkilotlarni bu masalani hal etishda faolligini oshirish masalasi ilgari suriladi.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nikoh va ota-onalik burchlari haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish mustahkam oilaning garovidir. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida nikoh va oila masalalari ayrim gumanitar fanlar mazmunida aks etgan bo'lib, oila, nikoh, bola tarbiyasi haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa pedagogika, psixologiya, fiziologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik fanlarida bu mavzuga alohida o'rin berilgan. Pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bobida aynan oila tarbiyasi asoslari mavzusi kiritilgan bo'lib, oila a'zolarining o'zaro oilaviy munosabatlari, oilada bola tarbiyasi, ota-onaning burch va vazifalari, oila byudjeti haqida talabalarga ma'lumot beriladi.

Talaba-yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini nazarda tutib, dastlabki oila va nikoh haqida boshlang'ich bilim beruvchi jamiyatning bo'g'ini oila va maktabda bu masalada e'tiborni kuchaytirish zarur. Oilada ota-onaning o'zaro munosabatlari, maktabda pedagoglar o'rtasida muomala madaniyati o'g'il-qizlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilan olib borilgan so'rov-anketa natijalariga ko'ra yoshlarimizning ko'pchiligi oila qonunchiligini yo yaxshi bilishmaydi, yoki mutloqo bexabar. Shaxsning oilaviy hayotga tayyorligi deyilganda, oila quruvchining: jismoniy (fiziologik), huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatdan yetuklikligi tushuniladi. Masalan, tibbiyot xodimlarning ta'kidlashicha, shaxsning jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga bog'liq. Klinik kuzatishlar natijasiga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog'atga etish) 12-14 yoshga, o'g'il bolalarda 14-16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida esa kechroq ro'y berishi mumkin. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilar bolalarda bo'ladigan fiziologik o'zgarishlarni o'z vaqtida payqashi va bu o'zgarishlar har bir o'smir yoshidagi bolada bo'lishini yotig'i bilan tushuntirishi lozim. Olimlarimiz shaxs yetukligini quyidagi turlarga bo'ladilar:

Fuqarolik huquqiy yetuklik - bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu yosh 18 yosh deb belgilangan. Bu yoshda shaxs Kostitutsiyada belgilangan barcha huquqiy me'yorlar va majburiyatlarni anglab yetadi va o'z xatti-harakatlariga javob beradi. 18 yoshga to'lgan shaxsni huquqiy yetuklik davri, deb bejizga aytishmaydi;

Kasb-hunar yetukligi - bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, shaxs bir tomondan qaysi bir kollej yoki liseyni, o'quv kurslarini bitirishi, ya'ni aniq bir ish turini bajarishi uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikma va malakaga egaligini bildiradi. Afsuski, odam biror bir o'quv yurtini tamomlagandan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha bir muddat ishlab ko'rishi kerak bo'ladi va shundagina uning kasbiy yetukligi haqida gapirish mumkin;

Psixologik yetuklik - deganda shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni mantiqan anglab yetishi va baholay olishi tushuniladi. Psixologik yetuklik, shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hammadlik, hamfikrlilik, quvuch va tashvishlarida sherik bo'lish, o'zaro yordam ko'rsatish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Psixologik yetuklikning yana bir muhim mezonini

shaxsning oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, yondashuvining mavjudligi va zarur bo'lganda oila manfaati uchun o'z qarashlarini ko'pchilik oldida himoya qila olishidir. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini yodda saqlagan holda oilada va ta'lim muassasalarida bu masalaga jiddiy e'tibor berish zarur. Talabalarni nikoh tuzish va nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar haqida xabardor qilish ularni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Eng avvalo, talabani nikoh oldi tibbiyot ko'rigi bo'yicha (oliy malakali mutaxassis shifokor bilan) tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiyot ko'rigidan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi. Bu moddaning mohiyati shundaki, har bir turmush quruvchi shaxs kelajakda ota-ona bo'lishini bilgan holda o'zi tanlagan jufti bilan tibbiyot ko'rigidan o'tishi va o'zining sog'ligi haqida xabardor bo'lishi zarur. Tibbiyot ko'rigidan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi sof vijdon va ma'suliyatli munosabatni ifodalaydi. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oilaning har bir a'zosi sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy va ma'naviy masala ekanligini bugungi barcha jamiyat a'zolari tushunib yetdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi va Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini tashkil etilgan. Markazlardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha o'qitishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda nikoh xaqidagi tasavvurlarini boyitish uchun auditoriyadan tashqari tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish va mutaxassislar, mahalla oqsoqollari, mudarrisarlarni taklif etgan holda uyushtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabani oilaviy hayotga axloqiy-psixologik tayyorgarligi, uning bir qator xulq me'yorlarini, talablarni, burchlarni anglab etganligidan dalolat beradi. Zero, oilaviy tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lmog'i zarur, bu siz sog'lom jamiyatni borpo etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda shunday shart-sharoitlar yaratilib berilayabti-ki biz yoshlar (talabalar) bulardan samarali foydalanib, kelgusi avlod uchun sog'lom farzandlarni voyaga yetkazishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizom 2003 yil 25 avgust
2. Otaxo'jaev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi., T., "O'zbekiston", 1995.,164-bet.
3. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T., "Adolat", 2006, 16-17-betlar.